

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: +998 71 244-43-56, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 22-04-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

237206 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Savr ko'chasida joylashgan mavjud binolarni turar-joy binolari, zamonaviy mexmonxona hamda biznes markazi qurish sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish hamda qo'shimcha binolar qurish (blok-1, blok-2, blok-3, blok-4, blok-5, blok-6, blok-7, blok-8 va blok-9 hamda blok-10)	
Buyurtmachi:	TOVIT- DEVELOPMENT CITY MCHJ
Bosh loyihachi:	"TOSHUYJOYLITI" aksiyadorlik jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	055324

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar hokimining 2019-yil 8-apreldagi 524-sonli qarori.
- 1.2. Buyurtmachi "Vero Poytaxt Qurilish" MChJ direktori X. R. Abzalov tomonidan 2023-yilda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan hamda loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalashtirish topshirig'i.
- 1.3. 2023-yil 10-iyulda taqdim etilgan 1726-1726273-70313-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (Muhandislik tarmoqlariga ulanish sharti bilan).
- 1.4. TShF "O'ZGASHKLITI" DUK tomonidan 2019-yilda taqdim etilgan hududning muhandis-geologik tadqiqotlar natijalari bo'yicha xulosa.
- 1.5. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ tomonidan 2024-yil 18-iyulda taqdim etilgan 270/4-3078-sonli texnik shart.
- 1.6. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Toshkent shahar elektr tarmoqlari" MChJ tomonidan 2024-yil 27-avgustda taqdim etilgan 05-1835-sonli texnik shartlar.
- 1.7. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 2024-yil 9-aprelda taqdim etilgan tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirish uchun 062068-sonli texnik shart.

1.8. "Vero Poytaxt Qurilish" MChJ va "ToshuyjoyLITI" AJ o'rtasida 2023-yil 10-oktabrda rasmiylashtirilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 1665-son shartnoma.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi "Fuqaro aviatsiyasi agentligi" "O'ZAVIATSIYa" Agentligining 2024-yil 24-iyuldagi 01-39/11-2670-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha hujjatlari "ishchi loyiha" bosqichida quyidagi qismlardan iborat.

- Loyihaning umumiy tushuntirish xati.
- Loyiha bosh rejasi (Albom-GP).
- Arxitektura yechimlari (Albom-AR).
- Temir-beton konstruksiya yechimlari (Albom-TBK).
- Yuk ko'taruvchi konstruksiyalar hisob-kitoblari.
- Avtomatik boshqaruv (Albom-AK).
- Texnologik jihozlar (Albom-TX).
- Suv va oqava suv ta'minoti (Albom-VK).
- Isitish va shamollatish tizimi (Albom-OV).
- Gaz ta'minoti tizimi (Albom-GS).
- Elektr ta'minoti (Albom-EM).
- Aloqa va signalizatsiya tizimi (Albom-SS).
- Obyektni issiqlik texniksi va energo texnik hisob-kitob pasporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish obyekti hududining o'ziga xos xususiyatlari.

"Mavjud binolarni turar-joy binolari, zamonaviy mexmonxona hamda biznes markazi qurish sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish hamda qo'shimcha binolar qurish (blok-1, blok-2, blok-3, blok-4, blok-5, blok-6, blok-7, blok-8 va blok-9 hamda blok-10)" obyekti Toshkent shahar, Mirobod tumani, Savr ko'chasida joylashgan.

- Havoning tashqi qishki hisoblash xarorati-manfiy 14^oS.
- Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi-8 ball.
- Shamolning tezligi-0,38 kPA (38 kg/m²).
- Qorning og'irligi-0,50 kPA (50 kg/m²).
- Tuproqni muzlashining maksimal chuqurligi-0,7 metr.
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitlarining turi-I (birinchi).
- Yer osti suvlari-yer yuzasidan maksimal darajada 4,7-5,2 metr chuqurlikda mavjud.
- Poydevorning asosi tuproqli, tuproq va shag'alli tuproqlar bo'lib, tepada quyma tuproqlar bilan qoplangan. Chuqurni ishlab chiqishda to'liq quvvat bilan katta hajmli tuproqlarni tanlash tavsiya etiladi.
- Tuproqlar portlend tsement beton konstruksiyalari uchun agressiv bo'lmagan holatda.
- Tuproqlarning metallarga nisbatan korroziv faolligi o'rtachadan yuqorigacha.

3.2. Bosh reja.

Loyihalashtirilayotgan ko'p qavatli turar-joy binolari va inshootlar Mirobod tuman, Savr ko'chasida joylashgan. Ajratilgan hudud Savr va Sarikul hamda Yangi Zamon ko'chalari orasida joylashgan va atrofida yakka tartibda qurilgan turar-joy binolari, maktab binosi, ma'muriy binolar, korxona va tashkilotlar idora va ishlab chiqarish binolari joylashgan. Bosh reja bo'yicha hududga 21 ta ko'p qavatli turar-joy binolari bulardan, 3 tasi 9-qavatli, 4 tasi 11-qavatli va 14 tasi 12-qavatli turar-joy binolari va 4-qavatli ma'muriy bino, maktab binosi (kelajakda qurish uchun) va bolalar maydonchasi joylashtirilgan. Turar-joy binolari, jamoat binolari va boshqa bino va inshootlar loyihalash topshirig'iga asosan bosqichlarga ajratilib

loyihalash va qurishga rejalashtirilgan. Ekspertiza tomonidan 1-bosqich qurilishiga kiritilgan 12-qavatli 1, 2, 3, 4, 5, 7 va 8 hamda 9-raqamli turar-joy binolari va 9-qavatli 6 va 10-raqamli turar-joy binolari ko'rib chiqildi. Bino va inshootlardan bo'sh maydonlar obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi, yo'llar va maydonlar asfalt va bruschatka plitkalar bilan qoplanadi, kichik arxitektura shakllari o'rnatiladi.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Umumiy maydon-5,128 ga.

Qurilish maydoni-1,993 ga.

Obodonlashtirish maydoni-1,112 ga.

Yo'llar va maydonlar-2,023 ga.

Umumiy xonadonlar soni-1 020 ta.

3.3. Arxitektura yechimlari.

Turar-joy binosi. Blok-1 va Blok-5.

Turar-joy binolari (Bosh reja bo'yicha 1 va 5-raqamli, arxitektura rejalashtirish yechimlari birxil) 12-qavatli, yerto'lali, tom qismida penthouse xonadonli, bitta seksiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchalari 18,0x31,0 metr, o'qlari 1-4/A-Ye, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavati balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavati 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-12-qavatlariga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Penthouse qavatiga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko'tarilish uchun har-bir blokda 1 ta zina va 2 ta lift mavjud. 1-raqamli bino "Ye" o'qi tomonidan 2-raqamli binoga, 5-raqamli bino "Ye" o'qi tomonidan 4-raqamli binoga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (Bitta bino uchun).

Binoning umumiy qurilish maydoni-839,8 m².

Binoning umumiy maydoni-7 731,5 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-30 842,2 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 96 ta.

Bundan: 1-xonali-24 ta.

2-xonali-72 ta.

Turar-joy binosi. Blok-2 va Blok-4.

Turar-joy binolari (Bosh reja bo'yicha 2 va 4-raqamli, arxitektura rejalashtirish yechimlari birxil) 12-qavatli, yerto'lali, yuqori qismi penthouse xonadonli, bitta seksiyali, reja bo'yicha "G" shaklda bo'lib, o'lchamlari 24,3x30,6 metr, o'qlari 1-5/A-Ye, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavati balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavati 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-12-qavatlariga 1 va 2 hamda 3 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlarga ko'tarilish uchun har-bir blokda 1 ta zina va 2 ta lift mavjud. 2-raqamli bino 3 va 1-raqamli binolarga, 4-raqamli bino 3 va 5-raqamli binolarga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (Bitta bino uchun).

Binoning umumiy qurilish maydoni-764,3 m².

Binoning umumiy maydoni-9 154,8 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-35 794,3 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 108 ta.

Bundan: 1-xonali-25 ta.

2-xonali-71 ta.

3-xonali-12 ta.

Turar-joy binosi. Blok-3.

Turar-joy binosi (Bosh reja bo'yicha 3-raqamli) 12-qavatli, yerto'lali, yuqori qismi penthouse xonadonli, ikkita seksiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchamlari 47,4x18,0 metr, o'qlari 1-9/A-G, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavat balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavat 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-12-qavatlariga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Penthouse qavatiga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun har-bir blokda 2 ta zina va 4 ta lift mavjud. 3-raqamli bino ikki tarafdin 2 va 4-raqamli binolarga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni-988,5 m².

Binoning umumiy maydoni-12 181,8 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-47 471,1 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 144 ta.

Bundan: 1-xonali-24 ta.

2-xonali-120 ta.

Turar-joy binosi. Blok-6.

Turar-joy binosi (Bosh reja bo'yicha 6-raqamli) 9-qavatli, yerto'lali, tom qismi penthouse xonadonli, ikkita seksiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchamlari 47,4x18,0 metr, o'qlari 1-9/A-G, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavat balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavat 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-9-qavatlariga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Penthouse qavatiga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun 2 ta zina va 4 ta lift mavjud. 6-raqamli bino "G" o'qi tomonidan 7-raqamli binoga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni-988,5 m².

Binoning umumiy maydoni-9 541,0 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-37 355,3 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 108 ta.

Bundan: 1-xonali-18 ta.

2-xonali-90 ta.

Turar-joy binosi. Blok-7 va Blok-9.

Turar-joy binolari (Bosh reja bo'yicha 7 va 9-raqamli, arxitektura rejalashtirish yechimlari birxil) 12-qavatli, yerto'lali, yuqori qismi penthouse xonadonli, bitta seksiyali, reja bo'yicha "G" shaklda bo'lib, o'lchamlari 24,3x30,6 metr, o'qlari 1-5/A-Ye, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12- qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavati balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavati 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-12-qavatlariga 1 va 2 hamda 3-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun har-bir blokda 1 ta zina va 2 ta lift mavjud. 7-raqamli bino 8 va 6-raqamli binolarga, 9-raqamli bino 8 va 10-raqamli binolarga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari (Bitta bino uchun).

Binoning umumiy qurilish maydoni-764,3 m².

Binoning umumiy maydoni-9 154,8 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-35 794,3 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 108 ta.

Bundan: 1-xonali-25 ta.

2-xonali-71 ta.

3-xonali-12 ta.

Turar-joy binosi. Blok-8.

Turar-joy binosi (Bosh reja bo'yicha 8-raqamli) 12-qavatli, yerto'lali, yuqori qismi penthouse xonadonli, bitta seksiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchamlari 26,6x18,0 metr, o'qlari 1-6/A-G, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavati balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavati 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-12-qavatlariga 1 va 2 hamda 3-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Penthouse qavatiga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun blokda 1 ta zina va 2 ta lift mavjud. 8-raqamli bino ikki tarafdan 7 va 9-raqamli binolarga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni-590,3 m².

Binoning umumiy maydoni-7 270,9 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-27 532,5 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 72 ta.

Bundan: 1-xonali-12 ta.

2-xonali-48 ta.

3-xonali-12 ta.

Turar-joy binosi. Blok-10.

Turar-joy binosi (Bosh reja bo'yicha 10-raqamli) 9 - qavatli, yerto'lali, tom qismi penthouse xonadonli, bir seksiyali, reja bo'yicha to'rtburchak shaklda bo'lib, o'lchalari 18,0 x 31,0 metr, o'qlari 1-4/A-YE, 1-qavat balandligi 3,72 metr, 2-12-qavatlar balandligi 3,06 metr, yerto'la qavati balandligi 4,32 metr (poldan-shiftgacha) va penthouse qavati 3,22 metr (poldan-shiftgacha). Binoning 1-9-qavatlariga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Penthouse qavatiga 1 va 2-xonali xonadonlar joylashtirilgan. Yerto'laga texnik xonalar loyihalashtirilgan. Yuqori qavatlariga ko'tarilish uchun har-bir blokda 1 ta zina va 2 ta lift mavjud. 10-raqamli bino 9-raqamli binoga birlashtirib loyihalashtirilgan.

Binolarning ichki bezagida suvli emulsiya bo'yog'i, laminat, linoleum, keramik plitka va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Tashqi bezagida fasad bo'yog'i, keramogranit ishlatiladi va tashqi devor mineral plitalar bilan qoplanadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni-839,8 m².

Binoning umumiy maydoni-6 087,3 m². (Yerto'la qismi bilan).

Binoning umumiy hajmi-24 551,9 m³. (Yerto'la qismi bilan).

Xonadonlar soni 72 ta.

Bundan: 1-xonali-18 ta.

2-xonali-54 ta.

3.4. Konstruksiya yechimlari.

Binoning konstruktiv sxemasi egiluvchan hisoblanadi.

Konstruksiya sistemasi:

a) 1.2.2. quyma temir-beton karkas, shu jumladan yig'ma orayopmalar;

b) 3.1 QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish"ga asosan bog'lamli yoki rama-bog'lamli.

Poydevorlar-qalinligi $t=1200$ mm bo'lgan quyma temir-beton yaxlit plitalar.

Yerto'la devori-qalinligi $t=400$ mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Kolonnalar-kesim yuzasi 400x400 mm va 400x1200 mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Rigellar-kesim yuzasi 400x400 mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Orayopmalar-qalinligi 160 va 250 mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Tashqi devorlar-qalinligi 200 mm (to'ldiruvchi)-gazobeton bloklar zichligi 600kg/m³ balandlik bo'ylab har 400 mm qadamda gorizonta setka GS-1 bilan armaturalangan, vertikal yaxlit temir beton devor o'zagi bilan mustahkamlangan.

Diafragma-qalinligi 400 mm va 300 mm hamda 200 mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Xonadonlar aro pardevorlar-zichligi 600 kg/m³ bo'lgan gazobetondan tayyorlangan kvartiralararo bloklar, devorlarning kesishgan joylarida devor balandligi bo'yicha 400 mm qadam bilan SG-1, SG-2 to'rlari bilan mustahkamlangan, vertikal monolit o'zaklar bilan kuchaytirilgan.

Zinapoyalar-quyma temir-betondan.

Lift shaxtasi-devorlari qalinligi $t=200$ mm bo'lgan quyma temir-betondan.

Tom konstruksiyasi- yassi yumshoq va 1-2 va A-V, G-Ye, 3-4 va A-Ye o'qlarida metall profnastil qoplamali.

3.5. Yong'in xavfsizligi hamda aloqa va signalizatsiya tizimlari.

Loyiha bo'yicha binoning yong'in-bardoshlik darajasi-II (ikkinchi).

Binoning funktsional yong'in xavfi sinfi- SO.

Binoning konstruktiv yong'in xavfi sinfi-F1.3.

Loyihaga muvofiq, turar-joy majmuasiga kiruvchi binolarga yong'in xavfi holatlarida o't o'chirish texnikalarining bimalol kirib borishini ta'minlash maqsadida mustahkam (qattiq) qoplamali yo'llar tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Qavatlararo harakatlanish H1 toifasidagi zinapoya yacheykalari va yo'lovchi liftlar orqali amalga oshiriladi. Podval qismida zinapoya yacheykasi (tambur orqali), lift shaxtalari va texnik xonalar joylashtiriladi. Podvaldan chiqishlar alohida zinapoyalar orqali, favqulodda chiqish sifatida esa framugli derazalar orqali ta'minlanadi. Shuningdek, podvaldan to'g'ridan-to'g'ri tashqariga olib chiqadigan zinapoya yacheykalari ham loyihalashtirilgan bo'lib, ular binoning boshqa qismlaridan yong'inga chidamli g'ov to'siqlar va eshiklar bilan ajratilgan.

Lift shaxtalari, tamburlar, dispetcher xonasi, elektr ta'minoti xonolari va boshqa texnik xonalar eshiklari EI60 toifasidagi yong'inga chidamli eshiklar bilan jihozlanadi. Binodagi barcha qavatlar bo'ylab lift yo'laklari, umumiy koridorlar, ochiq maydonchalar va zinapoya yacheykalarining eshiklari avtomatik yopiladigan, zich yopiladigan, yong'inga bardoshli eshiklar bilan ta'minlanadi.

Tom qismiga chiqish zinapoya yacheykasidan yong'inga chidamli eshik orqali amalga oshiriladi. Penthausning tom qismida metall panjara o'rnatilishi nazarda tutilgan.

Evakuatsiya yo'llari (lift yo'laklari, koridorlar, zinapoya yacheykalari) va binolarning tashqi bezak qismida faqatgina O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik me'yorlari-ShNQ 2.01.02-04 talablari asosida tanlangan pardozlash materiallari qo'llaniladi.

Yong'inga qarshi avtomatik signalizatsiya tizimi binoning quyidagi hududlarida o'rnatilishi rejalashtirilgan: podval xonolari, har qavatdagi lift yo'laklari, umumiy koridorlar va turar-joy xonadonlari. Signalizatsiya tizimining ogohlantiruvchi belgilarini qabul qiluvchi qurilmalar elektr ta'minoti xonalarining 1, 2, 4, 5, 7, 8, 9, 10-bloklarida va podvalning 3 hamda 6-raqamli zinapoya yacheykalarida joylashtiriladi. Manzilli tutun aniqlagichlari hamda qo'l bilan faollashtiriladigan signalizatorlar qo'llaniladi. Tizim uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun 12 Vli akkumulyatorlar orqali zaxira quvvat manbai bilan ta'minlanadi. Yong'in haqida ogohlantirish yorug'lik va tovushli signalizatorlar yordamida amalga oshiriladi. Binoning ichki va tashqi qismlarida kecha-kunduz ishlovchi videokuzatuv tizimi o'rnatilishi belgilangan. Evakuatsiya yo'llarida (lift yo'laklari, umumiy koridorlar, zinapoya yacheykalari) favqulodda LED chiroqlar o'rnatiladi, ularning har birida "Chiqish" yozuvi mavjud bo'ladi. Bu yoritgichlar elektr ta'minoti tizimi orqali ishlaydi. Loyihaga muvofiq, har qavatdagi lift yo'laklaridan tutunni chiqarish alohida yong'inga chidamli shaxtalar orqali amalga oshiriladi. Bunda tom qismiga o'rnatilgan ventilyatorlardan (masofadan va qo'lda boshqariladigan) foydalaniladi. Shuningdek, lift shaxtasiga havo bosimi beriladi. Yerto'lada lift shaxtalari va zinapoya yacheykalari oldida joylashgan tamburlarda ham havo bosimi tizimi o'rnatiladi. Turar-joy xonadonlari gaz bilan ta'minlanadi. Foydalanuvchilar sifatida 4 konforkali gaz plitalari hamda yopiq yonish kamerali devoriy isitish qozonlari ko'zda tutilgan. Qozonlardan chiqadigan tutun gazlari yong'inga bardoshli yig'ma tutun trubasi orqali chiqariladi. O'rnatiladigan gaz plitalari avtomatlashtirilgan bo'lib, olovni nazorat qiluvchi tizim bilan jihozlanadi. Shuningdek, barcha gaz jihozlari oldida gaz analizatorlari o'rnatilishi belgilangan. Yong'in signalizatsiyasi ishga tushgan taqdirda, avtomatik ravishda ventilyatsiya tizimi o'chiriladi va tutunni chiqarish hamda havo bosimini ta'minlash tizimlari ishga tushadi. Ichki yong'in o'chirish tizimi doirasida har bir blokda 2 ta 2,5 l/s suv oqimi bilan ichki yong'in quvurlari tizimi (B2) o'rnatiladi. Har bir qavatdagi lift yo'laklarida yong'in kranlari joylashtiriladi. Ushbu kranlar mos diametrli yong'in shlanglari va purkagichlar bilan ta'minlanadi, shuningdek, har bir joyda ikkita OP-10 rusumli

qo'l yong'in o'chirgichlari o'rnatiladi. Tizimdagi suv bosimini oshirish maqsadida yerto'la qismida masofadan boshqariladigan yong'in nasoslari o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Loyihaning avtomatika (AK) bo'limiga muvofiq, yong'inga qarshi avtomatik tizimlarni avtomatik boshqarish nazarda tutilgan. Yong'in xavfsizligi postiga oid chora-tadbirlar alohida loyiha doirasida ishlab chiqiladi.

3.7. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- tashqi devorlar uchun Mineralovatnaya plita $G=145 \text{ kg/m}^3$ bazaltli qalinligi $t=70 \text{ mm}$ bazalt asosiga ega mineral paxta plitalari qo'llanilgan.
- tomyopma uchun $t=150 \text{ mm}$ bo'lgan keramzit $Y600 \text{ kg/m}^3$ qo'llanilgan;
- tomda umumiy quvvati 64.8 kVt ega bo'lgan 11 dona quyosh panellari va 64 dona quyosh kollektori va issiq suv ta'minoti uchun binoda issiqlikni akkumulyatsiyalovchi qo'shimcha energiya to'plagich idishlar (boylerlar) o'rnatilishi loyihada ko'zda tutilgan;
- yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan;
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichki muhandislik ta'minoti.

Loyihalaniyotgan obyektida suv va oqova suv ta'minoti tizimi, isitish va shamollatish tizimi, elektr ta'minoti tizimi va gaz ta'minoti tizimi hamda aloqa va signalizatsiya tizimlari loyihalash topshirig'iga hamda muhandislik texnik shartlariga muvofiq ta'minlash ko'zda tutilgan.

4.2. Tashqi muhandislik ta'minoti.

Loyihalanayotgan obyektning tashqi muhandislik ta'minoti buyurtmachi tomonidan tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan loyiha topshirig'ining 23-bandiga asosan kyeyingi bosqichda loyiha hujjatlari ishlab chiqilishi sababli, loyihaviy yechimlar ekspertiza ko'rigidan o'tkazilmadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 2025-yil 14-fevraldagi 173460856-sonli xulosasi (2025-yil 13-fevraldagi 03-65-38-sonli bosh reja va fasad bo'yicha kelishuv).

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi, Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining 2024-yil 4-martdagi 01-02/14-189-sonli xulosasi.

5.3. Loyiha hujjatlari loyihachi tomonidan tasdiqlanib, smeta qiymatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra **1** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

0 so'mga kamaytirilib, **1** so'mni tashkil etadi. Xususan:

6.1. Ekspertiza jarayonida soha ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266-sonli qaroriga muvofiq hamda 2025-yil 27-yanvardagi ShNQ 2.07.02-24 asosida ishchi loyihaga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Buyurtmachi, mazkur obyekt bo'yicha tashqi muhandislik tarmoqlari uchun o'rnatilgan tartibda loyiha tashkilotiga ularning loyihasini ishlab chiqarish uchun buyurtmama bersin.

Natijasi bo'yicha ShNQ1.03.06-16 me'yorlariga rioya etgan holda ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun taqdim etilsin.

6.3. Shuningdek, buyurtmachi, loyiha va bosh pudrat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli Farmoni talablariga qat'iy rioya qilinsin.

6.4. Smeta hujjatlariga asosan qurilish ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi, smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori Nizomining 3-bob, 29-bandiga muvofiq, Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshiriishini ta'minlaydi.

6.9. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, "Toshkent shahar, Mirobod tumani, Savr ko'chasida joylashgan mavjud binolarni turar-joy binolari, zamonaviy mexmonxona hamda biznes markazi qurish sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish hamda qo'shimcha binolar qurish (blok-1, blok-2, blok-3, blok-4, blok-5, blok-6, blok-7, blok-8 va blok-9 hamda blok-10)" obyektining ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Kasimxodjayev Saidjamoliddin Saydasrarovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Kasimxodjayev Saidjamoliddin Saydasrarovich, Vakurova Irina Vladimirovna, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Sagatov Mirabid Xxx, Tulteyev Kenes Toivasovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Atabayev Daniyar Baxtiyarovich